



THE RESULT OF THE DEVELOPMENT OF THE INTERNATIONAL  
RELATIONS.

MAMLAKATLAR ARO SHAKLLANGAN MUNOSABATLAR OMILI

Ismoil Boymirzayev Hasanovich

*Farg'ona davlat universiteti Akademik litseyi tarix fani bosh o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar, milliy siyosatga bir yoqlama qaralar edi. U xech bir ittifoqdosh respublikada hal etilmagan. Mustaqillik yillarida ko'p millatli mamlakatda fuqarolar o'rtasida tinchlik va millatlararo totuvlik saqlanganligi O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lida qo'lga kiritgan katta yutuqlaridan biridir. SHu bilan bir qatorda o'zining qardosh davlatlari bilan aloqalar qaytadan tiklana boshlandi. Buni biz O'zbekiston va Hindiston misolida ham ko'rishimiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Hindiston bilan hamkorlikni rivojlantirish O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir.

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, O'zbekiston va Hindiston qadimiy tamaddun beshiklaridan biri bo'lganiga guvoh bo'lamiz. Buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy XI asrda ushbu diyorda bo'lgan va o'zining mashhur "Hindiston" asarini ana shumamlakat mavzusiga bag'ishlagan edi. Unda hind diyorining tabiati, tarixi, xalqining hayottarzi, falsafiy-diniy dunyoqarashlari haqida tahliliy faktlar yoritilgan.

XVI asrda buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asari bilan butun dunyo uchun Hindistonni yangidan kashf qildi. Hind xalqini esa Vatanimizning takrori yo'q go'zalligi, ko'rk-tarovati bilant anishtirdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar yangi omillar mazmun bilan boyidi, hamkorlik taraqqiyot yo'luga tushdi.

Ma'lumki, O'zbekistonning 1991-yil 31-avgust kuni mustaqil davlat ekanligini e'lon qilishi ulkan tarixiy voqeaga aylandi, bu esa o'zlikni anglashga zamin yaratdi.

Hindiston mamlakatimiz mustaqilligini birinchilar qatoridan olganini alohida ta'kidlash joizdir. Toshkentda 1992 yil 18 martkuni Diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risidagi xujjatni imzolanishi bilan davlatlarimiz o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik ko'lami yildan-yilga tobora kengayib, rivojlanib bormoqda<sup>1</sup>.

Hindiston bilan hamkorlikni rivojlantirish O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir. Mamlakatimiz Hindiston bilan oliy darajada va tashqi siyosat mahkamalari o'rtasida delegatsiyalar almashish orqali muntazam siyosiy muloqot olib bormoqda. Xususan, Prezidentimiz Islom Karimovning to'rt marta hind o'lkasiga qilgan tashrifini ta'kidlash lozim. Prezidentimizning 1991 yil avgust oyida ushbu mamlakatga amalga oshirgan oliy darajadagi dastlabki tashrifi chog'ida do'stona aloqalar va o'zaro

<sup>1</sup>Алок Шекхар. Ўзбекистон-Ҳиндистон: Умид ва ишонч // Халқ сўзи 2001. 26-январ с.



ishonchni rivojlantirish yo'lida mustahkam poydevor yaratildi<sup>2</sup>. Bu ikki davlat tomonidan madaniy jihatdan olib borilayotgan aloqalar bugungi kunga kelib rivojlangan darajaga ko'tarildi. Hindiston siyosatchilari va davlat arboblari hisoblangan M.Gandiva J.Neru nomli muzeyni tashkil etilishi fikrimiz isbotidir. Bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur 1526-yili 21-apreldagi g'alabasidan so'ng, Hindistonda yangi sulola Boburiylar sulolasiga asossoldi. Bu yangi sulola Hindistonni 332 yil, ya'ni Angliya bosib olguniga qadar boshqargan.

Madaniy sohada Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 1993-yil 510 yiligining tantanali tashkil etilishi, bu sanani esa hind mamlakatida ham nishonlanishi katta voqea bo'ldi. Bobur avlodlari bilan bugungi kunda aloqalar olib borilmoqda. Laylo Ummaxonimning katta o'g'li Ziyovuddin Tusiyning O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.AKarimovga yozgan hatida O'zbekistonda Bobur shahsiga ko'rsatilayotgan xurmat-ehtiromni alohida ta'kidlab o'tganligi bunga misol bo'la oladi.

Davlatimiz rahbarining 2005-yil aprel oyida Hindistonga amalga oshirgan davlat tashrifi ikki tomonlama hamkorlik rivojidadagi g'oyat katta qadamlardan biridir. Uchrashuv chog'ida tomonlar mamlakatlarimiz o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy munosabatlar izchil va samarali rivojlanib borayotganini alohida ta'kidladilar. Mazkur hamkorlik mamlakatlarimiz o'rtasidagi uzoq istiqbolli milliy manfaatlarga mos bo'lib, o'zaro aloqalarning yanada mustahkamlanishiga, ham mintaqa, ham jahon miqyosida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, xalqaro transafg'on transport yo'lagini barpo etishga oid loyihani hayotga tezroq tatbiq etish muhimligi qayd etildi. Bu O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi masofani sezilarli darajada qisqartirish, yuktashish xarajatlarini kamaytirish va Afg'onistonni mintaqaviy transport kommunikatsiyasiga integratsiyalashtirish imkonini beradi. Hindiston Bosh vaziri Manmohan Singx 2006-yilning aprel oyida rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lganida shartnomalar qabul qilindi. Ushbu tashrif asnosida siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar va hamkorlikning boshqa sohalarida ikki tomonlama aloqalarni yanada rivojlantirish masalalari, shuningdek, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb muammolar yuzasidan atroflicha fikr almashildi va amaliy rejalar belgilash xayotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, ikki tomonlama munosabatlar 1992-yilda tashkil etilgan Savdo-iqtisodiyva ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston – Hindiston hukumatlararo komissiyasi doirasida tartibga solinadi.

O'zbekiston va Hindiston o'rtasida ikki tomonlama munosabatlarning mustahkam normativ-huquqiy bazasi yaratilgan. O'zaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan 73 ta davlatlararo, hukumatlararo, idoralararo hujjatlari mzolangan. 1993-2011-yillarda ushbu Komissiya to'qqiz marta majli so'tkazdi<sup>3</sup>. Komissiyaning 2011-yil 4-may kuni Toshkentda bo'lib o'tgan so'nggi majlisida tomonlar siyosiy muloqotlarni faollashtirish va iqtisodiy aloqalarni, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, konchilik, mashinasozlik, to'qimachilik sanoati, sog'liqni saqlash, fan, axborot texnologiyalari, qishloq xo'jaligi kabi sohalarda hamkorlikni kengaytirish bo'yicha maslahatlar o'tkazish muhimligini qayd etdilar.

<sup>2</sup> Азьмова С. Ҳозирги Ҳиндистон. Т. Фан. 1991-й

<sup>3</sup> Ахмадали Ф. Ҳиндистон. Т. Молия. 2010 . й



O'zbekiston va Hindiston o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik izchil taraqqiy etmoqda. Ikki mamlakat o'rtasida 2010-yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 150 million dollarni tashkil etdi. Bugungi kunda bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davridagidan 41,2 milliondollarga ortdi. O'zbekistonning Davlat investitsiya dasturiga muvofiq, 2007 – 2010-yillarda 4 loyihaga Hindistondan 33,5 million dollar miqdorida sarmoya jalb etildi. Hozir yurtimiz to'qimachilik tarmog'ida Hindistonning «Spenteks Industries» kompaniyasining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyasi ishtirokida umumiy qiymati 143,78 million dollarlik ikkita loyiha amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda yurtimizda ishlab chiqarishining turli sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan va farmatsevtika mahsulotlari savdosi bilan shug'ullanayotgan 18 ta Hindiston kompaniya va tashkilotlari vakolatxonolari ro'yxatga olingan. Hozir mamlakatimizda Hindiston kapitali ishtirokidagi 62 korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, ularning 11 tasi to'liq hindistonlik sarmoyadorlar tomonidan shakllantirilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalaridagi aloqalarni yanada mustahkamlash maqsadida ko'plab forum va ko'rgazmalar o'tkazilmoqda.<sup>4</sup> Toshkent shahrida 2008-yilning iyulida o'tkazilgan «Hindiston mini texnologiyalari kichik biznes uchun – “India minitech – 2008” ko'rgazmasi samarali bo'ldi. 2010 yilda Hindiston hukumati O'zbekiston sog'liqni saqlash muassasalariga tibbiy uskunalar sotib olish uchun 1 million dollar hajmida maxsus grant ajratdi. Zero, 1991 yilda o'z faoliyatini boshlagan “O'zbekiston – Hindiston” do'stlik jamiyati madaniy aloqalarni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Toshkentda 2006-yilning aprely oyida Javoharlar Neru nomidagi O'zbekiston – Hindiston axborot texnologiyalari markazi ochildi. Dehli shahrida 2011 yilning yanvar oyida axborot texnologiyalari bo'yicha O'zbekiston – Hindiston qo'shma ishchi guruhining birinchi majlisida bajarilgan ishlar haqida hisobot berildi. Hindiston Respublikasi Farmatsevtika kompaniyalari eksportini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kengash delegatsiyasi O'zbekiston va Hindiston o'rtasida ikki tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida mamlakatimizga tashrif buyurdi. Hamkorlik rivojlanish omillaridan foydalanishni ham ko'zda tutmoqda. Ushbu mamlakatning 13 ta farmatsevtika kompaniyasi ish olib bormoqda. Davlatlarimiz o'rtasida eng ko'p qulaylik yaratish tartibi o'rnatilgan. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligidan olingan ma'lumotlarga qaraganda, bugun mamlakatimizda 124 korxonalar dori preparatlari va tibbiyot texnika vositalarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanmoqda. Xalqaro farmatsevtika kompaniyalari, jumladan, Hindiston kompaniyalarining yangi vakolatxonalarini ochilmoqda va ular o'zbekistonlik sheriklari bilan tegishli loyihalarni amalga oshirishda hamkorlik qilmoqda. Rivojlangan bugungi kunda bu ikki mamlakatlarning aloqalari hech qachon to'xtab qolmaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va Hindiston diplomatik munosabatlarini XXI asrda yanada yuqori darajaga ko'tarilishadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmadali G'ofurov. Hindiston. Toshkent. “Moliya”. 2010 y.

<sup>4</sup>Шоматов О.Х. Қадимги хинд маданиятига оид сўзлар луғати. Т.: 2005 й.



2. SHomatov O.H. Qadimgi hind madaniyatiga oid so'zlar lug'ati. T.; 2005 y.
3. SHarma L.P. Boburiylar saltanati. –T.; "Ma'naviyat". 1998 y.
4. Bobur Zahridin "Boburnoma" –T.; 1989 y.
5. A'zamova S. Hozirgi Hindiston.-T.; "Fan". 1991 y.
6. Ahmadaliyeva G. H. et al. YARIMO 'TKAZGICH MODDALAR VA ULARNING XARAKTERISTIKALARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 91-93.
7. Yusubjanovna A. M. BIRINCHI TIBBIY YORDAMNING AHAMIYATI VA UNI BAJARISHNING UMUMIY QOIDALARI //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 1.
8. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. YURAK ISHEMIK KASALLIKLARI VA ULARNI OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY USULLARI //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 6.
9. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. BUYRAK TOSH KASALLIKLARINI HOSIL BO'LISHIDA GIPODINAMIYANING TA'SIRI //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 6.
10. Usmonov S., Alisherjonova F. INSON TANASIDA BO'LADIGAN ELEKTR HODISALARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4 Part 2. – С. 200-203.
11. Usmonov S., Isroilov S. CHAQALOQLARDA QORIN DAM BO'LISHINING SABABLARI, DAVOLASH USULLARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4 Part 2. – С. 196-199.
12. Isroil o'g'li X. M., Abdusubxon o'g'li U. S. GIPERTONIYA KELIB CHIQISHI SABABLARI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS". – 2023. – Т. 2. – №. 5.
13. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. BOLALARDA GASTROENTRITNING NAMOYON BO'LISHI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS". – 2023. – Т. 2. – №. 5.
14. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. KAM HARAKATLIK NATIJASIDA KELIB CHIQUADIGAN KASALLIKLARNI XALQ TABOBATI BILAN DAVOLASHNING TOP 10 TA USULI //SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS. – 2023. – Т. 1. – №. 3.
15. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. GIPERTONIYA KASALLIGINI RIVOJLANISHINI OLDINI OLISHNING ENG YAXSHI USULLARI //SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS. – 2023. – Т. 1. – №. 3.
16. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. QONNI SUYULTIRADIGAN TOP-10 MAHSULOT //SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS. – 2023. – Т. 1. – №. 3.
17. Abdusubxon o'g'li U. S. ELEKTROMAGNIT MAYDONINING ORGANIZMGA TA'SIRI //SCIENCE AND INNOVATION IDEAS IN MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 1. – №. 2.



18. Abdusubxon o'g'li U. S. et al. KONDILOMA VIRUSLARINI DAVOLASHDA KRIOGEN TERAPIYA //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – T. 2. – №. 1.

19. Abdusubxon o'g'li U. S., Madaminovna M. F. TA'LIM JARAYONLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING TUTGAN O'RNI //International scientific-practical conference on "Modern education: problems and solutions". – 2022. – T. 1. – №. 5.

20. Abdusubxon o'g'li U. S., Madaminovna M. F. FIZIKA FANINI KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISHNING AHAMIYATI //E Conference Zone. – 2022. – C. 217-219.

21. Abdusubxon o'g'li U. S., Yusubjanovna A. M. YARIMO 'TKAZGICH MONOKRISTALINI O 'STIRISH //E Conference Zone. – 2022. – C. 33-34.

22. Abdusubxon o'g'li U. S. YURAK QON-TOMIR SISTEMASI KASALLIKLARI. MIOKARD INFAKTI PAYDO BO'LISH MEXANIZMI VA OLDINI OLISH CHORALARI //E Conference Zone. – 2022. – C. 227-228.